



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	



INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMALAR TIZIMIDAGI O'RNI

Pulatova Dilfuza Azamkulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasining nazariy-metodologik asoslari, uning zamonaviy pedagogik paradigmlar tizimidagi o'rni hamda ta'lim sohasidagi transformatsion jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limning insonparvarlik, teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, konstruktivistik va transformativ pedagogik paradigmlar doirasida inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi, balki zamonaviy ta'lim tizimining fundamental rivojlanish yo'nalishi ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, pedagogik paradigma, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim sifati, alohida ta'lim ehtiyojlari, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of inclusive education, its place within the system of modern pedagogical paradigms, and its significance in the transformational processes of the education sector. The inseparable connection between inclusive education and the principles of humanism, equal opportunity, social justice, and sustainable development is scientifically substantiated. The article also explores the essence of inclusive education within the framework of competency-based, student-centered, constructivist, and transformative pedagogical paradigms. The research findings indicate that inclusive education is not only a mechanism for supporting students with special educational needs but also a fundamental direction for the development of the modern education system.

Key words: inclusive education, pedagogical paradigm, competency-based approach, student-centered education, quality of education, special educational needs, sustainable development.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методологические основы инклюзивного образования, его место в системе современных педагогических парадигм, а также его значение в трансформационных процессах сферы образования. Научно обоснована неразрывная связь инклюзивного образования с принципами гуманизма, равных возможностей, социальной справедливости и устойчивого развития. Также раскрывается сущность инклюзивного образования в рамках компетентностной, личностно-ориентированной, конструктивистской и трансформативной педагогических парадигм. Результаты исследования показали, что инклюзивное образование является не только механизмом поддержки учащихся с особыми образовательными потребностями, но и фундаментальным направлением развития современной системы образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогическая парадигма, компетентностный подход, личностно-ориентированное образование, качество образования, особые образовательные потребности, устойчивое развитие.

KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifati va ommabopligini ta'minlash XXI asrning eng dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya, inson huquqlarini ta'minlash va barqaror rivojlanish jarayonlari ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Mazkur talablar orasida barcha fuqarolar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish, ta'limdagi ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirish hamda har bir shaxsning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifatli ta'limni tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro hamjamiyat tomonidan ta'lim sohasida inklyuzivlik tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensi-

yasi”¹, UNESCOning “Ta’lim hamma uchun” dasturi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4-maqsadi sifatli va inklyuziv ta’limni ta’minlashni nazarda tutadi.² Mazkur hujjatlarda har bir bolaning, uning sog’lig’i, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, etnik mansubligi yoki rivojlanishidagi o’ziga xos xususiyatlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqi kafolatlangan.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi dastlab maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta’lim tizimiga jalb etish g’oyasi sifatida shakllangan bo’lsa, bugungi kunda u ancha keng mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy talqinda inklyuziv ta’lim barcha o’quvchilarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash, mavjud to’siqlarni bartaraf etish va ta’lim tizimini o’quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuv sifatida qaraladi. Shu sababli inklyuziv ta’lim nafaqat maxsus pedagogika, balki umumiy pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ta’lim menejmenti kabi fanlar kesishmasida shakllanayotgan zamonaviy ilmiy yo’nalishlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta’lim nazariyasida yangi pedagogik paradigmalarda shakllana boshladi. An’anaviy bilimga yo’naltirilgan paradigma o’rnini bosqichma-bosqich gumanistik, konstruktivistik, kompetensiyaviy va shaxsga yo’naltirilgan paradigmalarda egalladi. Ushbu paradigmalarda markazida o’quvchi shaxsi, uning ehtiyojlari, qobiliyatlari va individual rivojlanish imkoniyatlari turadi. Inklyuziv ta’lim aynan mazkur paradigmalarda negizida rivojlanib, ularning amaliy ifodasiga aylanmoqda.

Zamonaviy pedagogik paradigmalarda orasida shaxsga yo’naltirilgan yondashuv alohida ahamiyatga ega. Mazkur paradigma har bir o’quvchini noyob shaxs sifatida qabul qilish, uning individual rivojlanish trayektoriyasini qo’llab-quvvatlash hamda ta’lim jarayonini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Inklyuziv ta’lim ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etib, har bir ta’lim oluvchi uchun qulay va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy paradigma ham inklyuziv ta’lim rivojida muhim metodologik asos bo’lib xizmat qilmoqda. Chunki bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki shaxsning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Inklyuziv ta’lim muhiti o’quvchilarda kommunikativlik, hamkorlik, tolerantlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Konstruktivistik pedagogika nuqtayi nazaridan esa bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki o’quvchilarning faol ishtiroki va ijtimoiy hamkorligi natijasida shakllanadi. Inklyuziv sinf muhitida turli imkoniyatlarga ega o’quvchilarning birgalikdagi faoliyati bilimlarni hamkorlik asosida egallash jarayonini kuchaytiradi. Natijada nafaqat akademik natijalar, balki ijtimoiy kompetensiyalar ham rivojlanadi.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan bo’lib, umumta’lim maktablarida inklyuziv amaliyotni keng joriy etish, pedagog kadrlarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish bo’yicha keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda inklyuziv ta’limning nazariy asoslarini zamonaviy pedagogik paradigmalarda bilan uyg’unlashtirish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va inklyuziv madaniyatni shakllantirish bilan bog’liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur holat inklyuziv ta’limning zamonaviy pedagogik paradigmalarda tizimidagi o’rnini chuqur ilmiy tahlil qilish, uning metodologik asoslarini aniqlashtirish va ta’lim tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi inklyuziv ta’lim tushunchasining nazariy mohiyatini ochib berish, uning zamonaviy pedagogik paradigmalarda tizimidagi o’rnini aniqlash hamda ta’lim sifati va ijtimoiy integratsiyani ta’minlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi inklyuziv ta’limning gumanistik, kompetensiyaviy, konstruktivistik va transformativ pedagogik paradigmalarda bilan integratsiyalashuv mexanizmlarini tizimli yondashuv asosida yoritish hamda ularning o’zaro aloqadorligini konseptual model sifatida tavsiflashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta’lim masalasi so’nggi o’n yilliklarda jahon pedagogika fanining eng muhim tadqiqot yo’nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo’nalishning shakllanishi inson huquqlari, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar konsepsiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog’liqdir. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maxsus ta’lim tizimidan inklyuziv ta’lim tizimiga o’tish jarayoni pedagogik nazariya va amaliyotda yangi paradigmalarning yuzaga kelishiga sabab bo’ldi.

Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari dastlab gumanistik pedagogika vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Gumanistik yondashuvga ko’ra, har bir inson o’zining individual imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat’i nazar, jami-

1 Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi konvensiyasi”

2 UNESCOning “Ta’lim hamma uchun” dasturi



yatning to'laqonli a'zosi sifatida rivojlanish huquqiga ega. Ushbu g'oya keyinchalik inklyuziv ta'limning metodologik poydevoriga aylandi.

Xorijiy olimlardan M. Ainscow inklyuziv ta'limni barcha o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, inklyuziya faqat nogironligi bo'lgan bolalarni umumta'lim tizimiga jalb qilish bilan cheklanmaydi. U ta'lim olishda yuzaga keladigan barcha to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli islohotlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuv inklyuziv ta'limni ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bog'lash imkonini beradi.

T. Booth va M. Ainscow tomonidan ishlab chiqilgan "Index for Inclusion" modeli inklyuziv ta'limni rivojlantirishning eng muhim konseptual asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur model uchta asosiy komponent – inklyuziv madaniyat, inklyuziv siyosat va inklyuziv amaliyotning o'zaro uyg'unligini nazarda tutadi. Tadqiqotchilar fikricha, ta'lim muassasasida haqiqiy inklyuziyani ta'minlash uchun ushbu komponentlarning barchasi bir vaqtning o'zida rivojlantirilishi lozim.

D. Mitchell tomonidan olib borilgan tadqiqotlar inklyuziv ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. Olim differensial o'qitish, individual ta'lim yo'nalishlari, kooperativ o'qitish va ota-onalar bilan hamkorlikni inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatining muhim shartlari sifatida ko'rsatadi. Mitchellning ilmiy qarashlari inklyuziv ta'limning pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligini isbotlaydi.

L. Florian esa inklyuziv pedagogika nazariyasini rivojlantirib, barcha o'quvchilar uchun yagona ta'lim muhiti yaratish zarurligini asoslaydi. Olimning ta'kidlashicha, pedagoglar o'quvchilar o'rtasidagi farqlarni muammo sifatida emas, balki ta'lim jarayonini boyituvchi resurs sifatida qabul qilishlari lozim. Bu qarash zamonaviy inklyuziv ta'lim falsafasining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

R. Slee tadqiqotlarida inklyuziv ta'limning ijtimoiy mohiyati alohida yoritilgan. Uning fikriga ko'ra, inklyuziya ta'lim tizimidagi diskriminatsiya va segregatsiyani bartaraf etish vositasi bo'lib, u demokratik jamiyat qurishning muhim shartlaridan biridir.

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili inklyuziv ta'limning kompetensiyaviy paradigma bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini amaliy faoliyat bilan bog'lashni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim muhitida esa o'quvchilar nafaqat akademik bilimlarni, balki hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, muammolarni hal etish va tolerantlik kabi hayotiy kompetensiyalarni ham egallaydilar.

Konstruktivistik pedagogika vakillari J. Piaget, L. Vigotskiy va J. Brunerlarning ilmiy qarashlari ham inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko'ra, bilimlar o'quvchilarning faol ishtiroki va ijtimoiy hamkorligi natijasida shakllanadi. Inklyuziv sinf muhiti aynan shunday hamkorlik uchun qulay sharoit yaratadi.

N.N. Malofeyev inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni umumiy ta'lim muhitiga kiritish faqat tashkiliy masala emas, balki ta'lim mazmuni, metodlari, baholash tizimi va pedagogik muhitni bolaning individual imkoniyatlariga moslashtirish bilan bog'liq murakkab pedagogik jarayon sifatida qarash lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa moslashuvchan o'quv dasturlari, korreksion yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash inklyuziv ta'lim samaradorligining asosiy shartlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Demak, multimodallik ham bolaning individual idrok kanallari, sensor imkoniyatlari va o'zlashtirish sur'atiga mos ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

A.V. Xutorskiy esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi va kompetensiyaviy yondashuv masalalarini chuqur asoslagan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, ta'lim jarayoni o'quvchining tayyor bilimlarni qabul qilishi bilan cheklanmasligi, balki uning shaxsiy tajribasi, qiziqishi, bilish uslubi va mustaqil faoliyatiga tayangan holda tashkil etilishi lozim. Olim individual ta'lim trayektoriyasini har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur'atiga mos ravishda quriladigan pedagogik yo'l sifatida izohlaydi. Demak, inklyuziv ta'limda maxsus pedagog multimodal texnologiyalarni qo'llashi zarur, chunki vizual, audial, kinestetik, taktil va raqamli vositalar orqali ta'lim mazmunini turli shakllarda taqdim etish har bir bolaning o'ziga xos bilish imkoniyatlarini faollashtiradi.

Mahalliy tadqiqotlarda inklyuziv ta'limning tashkiliy-pedagogik asoslari, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni ijtimoiylashtirish masalalari keng o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o'rni va ularning o'zaro integratsiyalashuv mexanizmlarini tizimli yoritishga qaratilgan ilmiy izlanishlar hali yetarli darajada emas.

Asoslovchi tadqiqotda inklyuziv ta'lim paradigmalari asosida bo'lajak maxsus pedagoglarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning bir necha jihatlari o'rganildi. Xususan, pedagogik-metodik jihatlari U. Fayziyeva, M. Sattarova, Sh. Matupayeva, X. Yunusovalarning tadqiqotlarida asoslab berilgan. Texnologik jihatlarni esa multimodal yondashuv axborotlashgan ta'lim muhiti va mashq maydoni sifatida talqin etib, multimodal yondashuv uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalarini korreksion jarayonga integratsiya qilish orqali interaktiv va ko'p sensorli ta'lim muhitini yaratish lozim degan qarashlarni V.A. Xafizulina, G. Abdulayeva, D. Shukurovalarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Ushbu olimlarning izlanishlari natijasida bo'lajak pedagoglarning texnologik tayyorgarligi inklyuziv ta'limda multimodal ta'sir samaradorligini oshirishi

isbotlangan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy eruditsiya, metodik tayyorgarlik va diagnostik tayyorgarlik mezonlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli inklyuziv ta'limning gumanistik, kompetensiyaviy, konstruktivistik va transformativ paradigmalardan iborat bog'liqligini kompleks tahlil qilish mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot zamonaviy pedagogik paradigmalardan nuqtayi nazaridan inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, aksiologik, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tizimli yondashuv inklyuziv ta'limni o'zaro bog'langan elementlardan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Mazkur yondashuv asosida inklyuziv ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilindi.

Aksiologik yondashuv orqali inklyuziv ta'limning qadriyatli asoslari o'rganildi. Tadqiqot davomida inson qadr-qimmatini, teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va bag'rikenglik inklyuziv ta'limning fundamental qadriyatlari sifatida tahlil qilindi.

Kompetensiyaviy yondashuv inklyuziv ta'limning natijadorligini baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur yondashuv yordamida inklyuziv ta'limning o'quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy, fuqarolik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlantirish xususiyatlari inklyuziv ta'limning markaziy obyekti sifatida qaraldi. Mazkur yondashuv inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida:

Mazkur tadqiqotda aniqlash maqsadida kompleks empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Kuzatuv metodi tadqiqotchiga o'quvchilarning real interpersonal munosabatlari, kommunikativ reaksiyalari va ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini sun'iy aralashsuz tahlil qilish imkonini beradi. Kuzatish jarayonida o'quvchilarning sinfdagi kommunikativ faolligi, milliy qadriyatlarga munosabati, milliy bayram va marosimlardagi ishtiroki, kattalarni hurmat qilish kabi ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratildi. Kuzatishlar asosan dars jarayonida, tanaffus vaqtida hamda milliy bayramlarga bag'ishlangan tadbirlar davomida olib borildi. Mazkur metod yordamida olingan ma'lumotlar keyingi psixodiagnostik tadqiqotlar uchun dastlabki empirik asos vazifasini bajardi.

So'rovnoma respondentlarning milliy qadriyatlarga munosabati, ularni bilish darajasi va kundalik hayotida qo'llash chastotasini o'rganish maqsadida qo'llanildi. So'rovnoma Likert shkalasi asosida tuzilgan bo'lib, unda respondentlar "to'liq qo'shilaman" (5 ball) dan "umuman qo'shilmayman" (1 ball) gacha bo'lgan javob variantlari orqali o'z munosabatlarini ifodaladilar.

Suhbat metodi yordamida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan subyektiv munosabatlari, xalq pedagogikasi vositalariga qiziqishlari hamda tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlari tahlil qilindi. Suhbatlar individual va guruh shaklida tashkil etildi. Ushbu metod o'quvchilarning ichki emotsional kechinmalari, milliy qadriyatlarni qabul qilish darajasi va kommunikativ xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Test respondentlarning milliy qadriyatlar haqidagi bilimlari, milliy identifikatsiyasi va ijtimoiy ustanovkalarini o'lchash maqsadida qo'llanildi.

Trening. Tarbiyaviy treninglar o'tkazilib, ular davomida xalq pedagogikasi vositalari (maqollar, ertaklar, xalq o'yinlari) orqali respondentlarning milliy qadriyatlarni qabul qilish darajasi oshirildi.

Pedagogik eksperiment. Tadqiqotning asosiy metodi sifatida konstatatsiya (aniqlovchi), formativ (shakllantiruvchi) va nazorat bosqichlaridan iborat bo'lgan pedagogik eksperiment tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi: konstatatsiya (aniqlovchi) bosqichi, formativ (shakllantiruvchi) bosqich va nazorat bosqichi.

Konstatatsiya (aniqlovchi) bosqichi. Ushbu bosqichda respondentlarda tadqiqotchilik va raqamli ko'nikmalarining dastlabki darajasi aniqlab olindi. Buning uchun quyidagi sotsiometrik metodikalar qo'llanildi: Andrey Viktorovich Xutorskiyning "Tadqiqotchilik kompetensiyasi" metodikasi, Galina Soldatova va Elena Rasskazovaning "Raqamli kompetensiya" metodikasi, "Talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga motivatsiyasini aniqlash" sotsiologik so'rovnomasi va talabalarning axborot bilan ishlash ko'nikmalari shakllanganlik darajasini aniqlash uchun (faoliyatning tabiati bo'yicha) I.S. Fishman metodikasining modifikatsiyasidan foydalanildi. Konstatatsiya bosqichi natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi va ularning tenglashtirilganligi isbotlandi.



Tadqiqotning keyingi bosqichida ishlab chiqilgan pedagogik model hamda takomillashtirilgan texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Ushbu bosqichda kuza-tish, suhbat, pedagogik tajriba-sinov hamda psixodiagnostik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida talabalarda axborot bilan ishlash, axborot manbalarini to'g'ri tanlash, ilmiy matnni shakllan-tirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Mazkur metodlar asosida inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmlar tizimidagi o'rni aniqlashtirildi hamda ularning o'zaro integratsiyalashuv mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy manbalar, xalqaro tajribalar va zamonaviy pedagogik paradigmlar tahlili natijasida inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyati hamda uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni aniqlandi. Tadqiqot davomida inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalari, pedagogik paradigmlar bilan integratsiyalashuv darajasi va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik paradigmlar rivojlanishining umumiy yo'nalishi o'quvchi markazlashgan ta'limni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, inklyuziv ta'lim ushbu jarayonning amaliy ifodasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan inklyuziv ta'limni alohida pedagogik texnologiya sifatida emas, balki zamonaviy ta'lim falsafasining integrativ modeli sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval: Inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmlar bilan integratsiyalashuv darajasi

Pedagogik paradigma	Asosiy tamoyil	Inklyuziv ta'lim bilan bog'liqligi	Integratsiya darajasi
Gumanistik paradigma	Inson qadri va erkinligi	Har bir o'quvchi qadriyat sifatida e'tirof etiladi	Yuqori
Shaxsga yo'naltirilgan paradigma	Individual rivojlanish	Individual ehtiyojlar hisobga olinadi	Yuqori
Kompetensiyaviy paradigma	Amaliy natijadorlik	Tayanch kompetensiyalar shakllanadi	Yuqori
Konstruktivistik paradigma	Hamkorlikda bilim qurish	Kooperativ o'qitish rivojlanadi	O'rta-yuqori
Transformativ paradigma	Ijtimoiy o'zgarish	Inklyuziv madaniyat shakllanadi	Yuqori
Raqamli pedagogika	Moslashuvchan ta'lim	Individual ta'lim trayektoriyasi yaratiladi	O'rta

Jadval natijalari inklyuziv ta'limning deyarli barcha zamonaviy pedagogik paradigmlar bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, gumanistik, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan paradigmlar inklyuziv ta'limning metodologik asosini tashkil etadi.

Mualliflik konseptual modeli. Nazariy tahlillar asosida inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmlar tizimidagi o'rni aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Mazkur model inklyuziv ta'limni pedagogik paradigmlar integratsiyasi asosida rivojlanuvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida tavsiflaydi.

Tadqiqot davomida inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmlar bilan bog'liqligini tavsiflovchi quyidagi ilmiy natijalar olindi:

1. Inklyuziv ta'limning metodologik asosini alohida bir pedagogik paradigma emas, balki bir nechta paradigmlar integratsiyasi tashkil etishi aniqlandi.
2. Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy paradigmlar inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy metodologik omillar ekanligi asoslandi.
3. Konstruktivistik pedagogika tamoyillarining qo'llanilishi inklyuziv sinf muhitida hamkorlik va ijtimoiylashuv darajasini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.
4. Transformativ pedagogika inklyuziv ta'limning nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatini ham ochib beruvchi nazariy asos sifatida namoyon bo'lishi belgilandi.
5. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda universal dizayn va raqamli pedagogika texnologiyalarining integratsiyasi muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Olingan natijalar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

M. Ainscow inklyuziv ta'limni ta'limdagi to'siqlarni bartaraf etish mexanizmi sifatida talqin qilgan bo'lsa, mazkur tadqiqot natijalari ushbu yondashuvni yanada kengaytirib, inklyuziv ta'limni pedagogik paradigmlar integratsiyasi mahsuli sifatida baholash imkonini berdi.

L. Florian tomonidan ilgari surilgan inklyuziv pedagogika konsepsiyasida o'quvchilar o'rtasidagi farqlar pedagogik resurs sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari ushbu fikrni tasdiqlab, ta'lim jarayonida differensial va individual yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatdi.

D. Mitchell tadqiqotlarida inklyuziv ta'limning samaradorligi ko'proq pedagogik texnologiyalar bilan bog'langan bo'lsa, mazkur tadqiqot natijalari texnologiyalar bilan bir qatorda pedagogik paradigmlar integratsiyasining ham muhimligini ko'rsatdi.

Tahlillar natijasida inklyuziv ta'limning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ham aniqlandi (2-jadval).

2-jadval: Inklyuziv ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Ta'sir darajasi
Pedagoglarning inklyuziv kompetentligi	Juda yuqori
Ta'lim muassasasining inklyuziv madaniyati	Juda yuqori
Ota-onalar bilan hamkorlik	Yuqori
Raqamli texnologiyalar	Yuqori
Universal dizayn asosidagi muhit	Yuqori
Normativ-huquqiy qo'llab-quvvatlash	O'rta-yuqori
Moddiy-texnik baza	O'rta

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim muvaffaqiyati faqat moddiy resurslarga emas, balki pedagogik madaniyat va pedagoglarning kasbiy kompetentligiga ham bevosita bog'liqdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida, inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirish kurslarida, umumta'lim maktablari faoliyatini takomillashtirishda, inklyuziv ta'lim konsepsiyalarini ishlab chiqishda hamda pedagoglarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirish dasturlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Mazkur natijalar inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmlar tizimidagi o'rnini aniqlashtirish bilan birga, uning amaliy rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmlar tizimidagi o'rni nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inklyuziv ta'limning mohiyatini ochib berish, uning zamonaviy pedagogik paradigmlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini asoslashdan iborat bo'ldi.

Nazariy tahlillar natijasida inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari va pedagogik imkoniyatlari chuqur o'rganildi. Aniqlanishicha, inklyuziv ta'lim barcha ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda teng va sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy pedagogik tizim hisoblanadi. Uning pedagogik mohiyati insonparvarlik, teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat, diskriminatsiyasizlik va ta'limning ommabopligi tamoyillari bilan tavsiflanadi. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni umumiy ta'lim muhitiga integratsiyalash bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim tizimini har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik paradigmlar – gumanistik, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, konstruktivistik va transformativ paradigmlar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar natijasida inklyuziv ta'lim mazkur paradigmlar rivojlanishining mantiqiy natijasi hamda ularning amaliy ifodasi ekanligi aniqlandi.

Xususan, gumanistik paradigma har bir shaxsning qadr-qimmatini e'tirof etish orqali inklyuziv ta'limning aksiologik asosini shakllantirsa, shaxsga yo'naltirilgan paradigma individual ehtiyojlarni hisobga olish mexanizmlarini belgilab beradi. Kompetensiyaviy paradigma inklyuziv ta'lim natijadorligini baholash mezonlarini aniqlashga xizmat qilsa, konstruktivistik paradigma bilimlarni hamkorlikda qurish va ijtimoiy o'rganish jarayonlarini izohlash imkonini beradi. Transformativ paradigma esa inklyuziv ta'limning nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ham ochib beradi.

M. Ainscow, T. Booth, L. Florian, D. Mitchell hamda boshqa xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar tahlili inklyuziv ta'limning ta'limdagi tenglik va adolatni ta'minlashga qaratilgan global pedagogik harakat sifatida shakllanganligini ko'rsatdi. Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni qiyosiy o'rganish natijasida inklyuziv ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglarning inklyuziv kompetentligi, ta'lim muassasasining inklyuziv madaniyati, oilaviy hamkorlik, universal dizayn tamoyillariga asoslangan ta'lim muhiti va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasiga bog'liqligi aniqlandi.



Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta'limning pedagogik ta'sir mexanizmlari ham tahlil qilindi. Aniqlanishicha, individual yondashuv, differensial ta'lim, hamkorlikdagi o'qitish, refleksiv faoliyat va ijtimoiy integratsiya mexanizmlari inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Mazkur mexanizmlar o'quvchilarning nafaqat akademik rivojlanishiga, balki kommunikativ kompetensiyalari, ijtimoiy moslashuvi, tolerantligi va fuqarolik mas'uliyatining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim yosh avlodning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida kamol topishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir ta'lim imkoniyatlarining kengayishi, ijtimoiy tenglikning ta'minlanishi, o'zaro hurmat va bag'rikenglik madaniyatining shakllanishi, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishi hamda barqaror ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim jamiyatda ijtimoiy inklyuziya va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashning muhim pedagogik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida "Inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi konseptual modeli" ishlab chiqildi. Mazkur model inklyuziv ta'limning metodologik asoslari, pedagogik mexanizmlari va natijaviy komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda ifodalash imkonini berdi. Modelga ko'ra, zamonaviy pedagogik paradigmalar integratsiyasi asosida tashkil etilgan inklyuziv ta'lim ta'lim sifati, ijtimoiy integratsiya va shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limni zamonaviy pedagogik paradigmalarni integratsiyalovchi, ta'limning insonparvarlik mohiyatini namoyon etuvchi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik model sifatida baholash imkonini berdi. Mazkur natijalar inklyuziv ta'lim nazariyasini boyitish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ta'lim amaliyotida inklyuziv yondashuvlarni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent : O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (PF-21-son3) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 2023.
3. Pulatova, D. A. (2022). The use of ict in classes on the development of audio perception and formation of pronunciation in children with hearing impairments. *ijodkor o'qituvchi*, 2(19), 441-445.
4. Pulatova, D. A. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'quv faoliyatiga motivatsiyasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. *экономика*, 514-517.
5. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 834-842.
6. Azamkulovna, P. D. (2022). Bo'lajak o'qituvchi-defektologlarga ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishni o'rgatish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish omili sifatida. *Scientific Impulse*, 1(5), 413-418.
7. Pulatova, D., & Boboxonova, M. (2023). AKTdan foydalanish jarayonida o'qituvchi imkoniyatlarini maktab o'quvchilari, talabalar va o'qituvchilarni axborot bilan ta'minlash. *Академические исследования в современной науке*, 2(12), 78-86.
8. Pulatova, D., To'raqulova, D., Mammadiyeva, D., & Abdvaxobova, N. (2023). Inklyuziv ta'limning terminologik asoslari. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5), 60–62. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/13970>
9. Pulatova, D., To'raqulova, D., Saydalova, B., & Zuhriddinova, D. (2023). Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarni saralash. *Наука и инновация*, 1(6), 80–82. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14418>
10. Azamkulovna, P. D. (2023). Tendencies of organizing integrated education in higher education. *Science and Innovation*, 2(5), 237-243.
11. Azamkulovna, P. D. (2023). Oliy ta'lim muassasasida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'nalganligi. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 76-81.
12. Пулатова, Д. (2023). Педагогические возможности в повышении профессиональных коммуникативных компетенций. *Наука и инновации*, 2 (B9), 160-163.
13. Пулатова, Д. А. (2023). Возможности смешанного обучения как фактор благополучия будущих специалистов. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 73-75.
14. Azamkulovna, P. D. Inklyuziv ta'limda tolerantlik muhitini yaratish (autizm sindromli bolalar misolida).
15. Usmonovna, K. F., Azamkulovna, P. D., & Khamidullayevna, K. Z. Increasing The Profitability Of The Learning Environment Through The Organization Of Adaptive Education In The Conditions Of Inclusion.
16. Usmanovna, K. F., Yunusovna, F. U., Dilfuza, P., Azamkulovna, I. S. N., & Zulaykho, K. Inclusive Education: Theory And Practice.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.